

CHET TILI O'QITISH METODIKASI FAN SIFATIDA

*Egamberdiyeva Irodaxon Abduraximovna**Andijon davlat chet tillari instituti katta o'qituvchisi**Dadaxonova Muharramoy Abdumannop qizi**Andijon davlat chet tillari instituti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarini o'qitish metodikalari hamda ularning vazifalari haqida qisqacha so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: chet tili, metodika, pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar, metod

Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko'p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o'quvchi va talabalar odatda uch tilni o'rGANADILAR. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til, va chet til. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o'taydigan birinchi til hisoblanadi. Ikkinchi til haqida so'z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo'shnilar tili sifatida qaraladi.

Hukumatimizning «Chet tillarini o'rGANISH tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori ingliz tilining O'zbekiston aholisi o'rtasida ommalashishiga zamin yaratdi. Mazkur qaror chet tillarni o'qitish tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasida tashkil etishni nazarda tutadi. Qisqa fursatda chet tillar bo'yicha mamlakatimizda uzlusiz ta'lim tizimi uchun davlat standartlari ishlab chiqildi, ta'limning barcha bosqichlari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar belgilandi. Ingliz tilini o'qitishda juda ko'p takliflar mavjudligini inobatga olsak, «Siz qaysi metod bo'yicha dars berasiz?» degan savol yanada dolzarblashib, intellektual mahsulot iste'molchilari darajasining o'sganligi namoyon bo'ladi.

Hozirda ingliz tilini o'rGANAYOTGAN talabalarga bir necha metodlar taklif etilmoqda. Ulardan biri – fundamental metoddir. U kamida 2-3 yillik o'qishni, grammatikani chuqur o'rGANISHNI taqozo etadi. Ushbu metod, asosan, professional tarjimonlarni tayyorlashda qo'l kelib, o'qish yakunida talabalar dunyoga «native speaker», ya'ni til egasining (tashuvchisining) ko'zi bilan qarashga erishadilar. Uning asosida til real va to'liq muloqot vositasi sifatida o'rGANILADI. Hozirda fundamental metod o'z maqsadini o'ZGARTIRMAGAN, amma boshqa ko'plab metodlar aynan fundamental metod bilan raqobat maydoniga chiqishgan.

Chet til o'qitish metodikasi fan sifatida 200 yildan ortiq tarixga ega. Bu davr ichida

chet til o‘qitish metodikasiga turlicha munosabatlar bildirilganini kuzatish mumkin. Bunday qarashlardan biri akademik L.V.Shcherbaga mansub hisoblanadi. Uning fikricha, har qanday fanni o‘qitish metodikasi fan bo‘lishiga qaramasdan, nazariy fan hisoblanmaydi. U amaliy masalalarni hal qiladi. Jumladan, chet til o‘qitish metodikasi ham faqat psixologiya dalillariga tayanmaydi, balki umumiylar va xususiy tilshunoslik tadqiqotlariga asoslanadi. Agar tilshunoslik til hodisalarining kelib chiqishi va harakatlanish qonuniyatlari bilan shug‘ullansa, metodika bu qonuniyatlarga asoslanib zarur til hodisasidan amalda foydalanish uchun nima qilish kerak degan savolga javob beradi. Metodikaga oid kitoblarning eng qimmatilari ham tilshunoslar tomonidan yozilgan.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, ma’lumki mamlakatimiz bo‘ylab turli-tuman o‘quv yurtlari bor, shu sababli ulardagagi o‘qitish maqsadlarini ko‘zlab shu o‘quv yurtlari uchun mo‘ljallangan alohida chet tili o‘qitish metodikasi bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ingliz tili darslarida innovatsion usullarni qo’llash natijasida o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi, nutqi ravonlashadi, tez va to‘g’ri javob berish malakasi shakllanadi. Bunday usullar o‘quvchida bilimga ishtiyoq uyg’otadi. O‘quvchi darslarga puxta hozirlilik ko‘rishga intiladi. Bu esa o‘quvchilarini ta’lim jarayonining faol sub’yektlariga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maxmudov, Shayxislamov (2020). O’zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o’rni va ularning turli jihatdan tasniflanishi. Science and Education, 1(Special Issue3).
2. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o‘qitishda kommunikativ yondashuv. Science and Education, 7(7), 215-220.
3. Joraboyev, B. B. O. (2021). Using authentic materials on english lessons. Academic research in educational sciences, 2(2).
4. www.ziyonet.uz
5. www.bilim.uz
6. www.baidu.com
7. www.china.com
8. www.hanban.edu.com